



Urunov Xasan Rayimovich

*Samarqand shahar 78-umumiy o'ta ta'lim maktab
tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mustamlakachi imperiya bo'l mish amaldorlarini XVI asr oxirida Koreyaga qilgan hujumlari go'yoki, yetmaganidek bu harakat XX asr boshlarida ham boshlandi. Bunga albatta, Koreya qirolligida garchand birikib bo'lmasa-da ammo, bir necha bor XIX asr oxirida bo'lib o'tgan dehqonlar qo'z'goloni mustamlakachi davlatlarga bu hududga kirishga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Natijada janglarning ko'pchilik qismi, shundog'am holdan toygan Koreya hududida bo'lib, keyinchalik dushman qo'shinlari bu Koreya yarimorolidan chiqib ketmadi.

Kalit so'zlar: Mustamlaka, Yaponiya, kabol, Tokio, platsdarm, Kochjon, imperator, shimoliy-sharqiy Xitoy

Abstract: As if the attacks on Korea by colonial imperial officials at the end of the 16th century were not enough, this movement also began at the beginning of the 20th century. Although this was not the case in the Korean kingdom, several peasant uprisings in the late 19th century provided ample opportunities for colonial powers to enter the region. As a result, most of the fighting took place in the then-depleted Korean territory, and later enemy troops did not leave the Korean peninsula.

Key words: Colony, Japan, Kabol, Tokio, bridgehead, Gojong, emperor, north-eastern China

1893-1894-yillarda og'ir soliqlar va feodallar zulmiga qarshi tarqoq holda bo'lsada, shiddat bilan olib borilgan dehqonlar qo'zg'aloni Koreya monarxiyasini inqiroz yoqasiga olib keldi. Qirol hukumati qo'zg'lonchilarining asosiy kuchlari yapon armiyasining yordami bilangina mag'lub etishga va qo'zg'aloni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Dehqonlar qo'zg'aloning asosiy natijalaridan biri, hukumat tomonidan —koba yili islohotlari (koreyslar taqvimiga ko'ra 1894-yil —kabol deb atalgan) deb nomlagan hujjatning qabul qilinganligi bo'ldi. Bu hujjatga ko'ra, XIX asrnin oxirigi o'n yiliga kelib, koreys jamiyatining rivojiga to'siq bo'layotgan unsurlarni yo'qotishga kirishildi va mamlakatning kapitalistik yo'ldan taraqqiy etishi uchun ma'lum darajada shart-sharoitlar yaratildi.

Biroq Koreya bu davrda, kapitalistik davlatlar o'rtasida boshlanib ketgan, mustamlakachilik ta'sir doiralarini bo'lib olish uchun kurashiga tortildi va buning natijsida o'z mustaqilligini yo'qota boshladi. Bu kurashda, ayniqsa, Yaponiya katta faollik ko'rsatadi. Yaponiya, 1871-1872-yillardayoq, Tokio nazarida Osiyoni zabt etish uchun platsdarm vazifasini bajarishi kerak bo'lgan, Koreya yarim oroliga harbiy ekspeditsiya uyushtirishga tayyorlik ko'rgan edi. Koreys hukumatiga doimiy harbiy

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bosim o'tkazgan Yaponiya, 1876-yilda birinchilardan bo'lib, Koreya bilan noteng shartnomaga imzolaydi. Shunga o'xshash shartnomalar, 1882- yilda AQSh bilan, 1883-yilda Angliya va Germaniya bilan, 1884-yilda Rossiya va Italiya bilan, 1886-yilda Fransiya bilan ham imzolanadi. Koreya yarim oroli ustidan hukmronlikka intilar ekan, Yaponiya 1894-1895-yillarda bo'lib o'tgan Yaponiya-Xitoy urushida Xitoyni harbiy mag'lubiyatga uchratadi. Urush harakatlarining katta qismi Koreya yarim orolida olib borildi va urush nihoyasiga yetgach, yapon okkupatsion qo'shinlari Koreyadan chiqib ketmadi.

Davlat mustaqilligini yo'qotish xavfi Koreya qiroli Kochjon va jamiyat hukmron toifalarning katta qismini, o'z chegaralari yaqinida Yaponiya ta'siri kuchayishini cheklashga harakat qilayotgan, Rossiya imperiyasiga yaqinlashishga majbur etdi. Koreya yarim orolida va Shimoiy-sharqiy Xitoy hududlarida

yapon qarama-qarshiligining kuchayishi, 1904-1905-yillarda bo'lib o'tgan, Rossiya-Yaponiya urushiga olib keldi. Bu urushda Rossiya mag'lubiyatga uchradi va 1905-yil sentabrda imzolangan Portsmut shartnomasiga ko'ra, Koreya yarim orolini Yaponiya ta'sir doirasida ekanligini tan oldi. Biroz avvalroq, Yaponiya Koreyani ishg'ol etish uchun AQSh va Angliyaning roziligidini olgan edi. Yuzaga kelgan vaziyatdan unumli foydalangan Yaponiya, 1905-yil 17-noyabrdagi qirol Kochjon va uning hukumatini —Homiylik haqida shartnomalni imzolashga majbur etishadi. Shu tariqa Koreya, huquqiy jihatdan, Yaponianing protektoratiga aylandi.¹⁰

Shartnomaga ko'ra Koreya mustaqil tashqi siyosat olib borish va har qanday xalqaro bitimlarni tuzish huquqidan mahrum etildi. Shartnomaning bajarilishi ustidan nazorat oli borish, amalga Koreyaning hukmdoriga aylangan va juda katta vakolatlarga ega bo'lgan, Yaponiya bosh rezidentiga berildi. Uning hokimiysi Koreyaning barcha davlat tashkilotlarida faoliyat olib borgan ko'p sonli yapon maslahatchilariga, viloyatlardagi yapon rezidentlariga, mamlakatdagi yapon qo'shinlariga va jandarmeriyasiga tayanar edi. Shunigdek, Koreyaning hosildor yerlari va baliqchilik sanoati yaxshi yo'lga qo'yilgan sohilbo'yi qishloqlariga katta sondagi yaponlarni ko'chirish choralari ham ko'rildi.

1907-yilda yaponlar qirol Kochjonne o'g'li foydasiga taxtdan voz kechishga majbur qilishadi. Chunki qirol Konchjon, Tokioda tayyorlanayotgan – Koreya yarim orolini to'liq anneksiya qilish rejalariga G'arb davlatlari e'tiborini jalb qilishga uringan edi. Bu esa yaponlarning keskin noroziligi keltirib chiqaradi. Yangi qirol bilan imzolangan hujjatga ko'ra. Koreya ichki masalarini hal etishda Bosh rezidentning vakolatlari kengaytirildi, mansab vafizalariga amaldorlarni tayinlash ishlari to'liq yapon maslahatchilarining qo'liga o'tdi, shuningdek, koreys armiyasi tarqatib yuborildi. Bu va boshqa tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirgan Yaponiya, AQSh, Angliya va Rossiya imperiyasining roziligi ostida, Koreya qirolining butun olyi huquqlarini Yaponiya imperatoriga ixtiyoriy ravishda

¹⁰ Новейшая история стран Азии и Африки XX век: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. В 2 ч./ Под.ред. А. М. Родригеса. – М.: 2001 г. – Ч. 1: 1900-1945. – С. 71.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o‘tkazilishi, aslida esa, Koreyaning anneksiya qilinishi to‘g‘risidagi shartnomani tayyorlaydi. 1910-yil 22-avgustda mazkur shartnomada Yaponiya va Koreya rasmiylari tomonidan imzolandi.

Yaponiya imperatorining farmoni bilan Koreya qirolli general-gubernatorlikka aylantirildi. Koreya general-gubernatori shaxsan imperator tomonidan, harbiylar aslzodalar orasidan tayinlanar, butun oliy qonunchilik va ijro hokimiyati uning qo‘lida jamlangan edi. Shuningdek, u Koreyadagi barcha okkupatsion qo‘sishinlar, jamdarmeriya, politsiya, sud va qamoqxonalarga ham boshchilik qilgan. General-gubernator bevosita imperatorga bo‘ysunar, Koreyada u chiqargan qonun va qarorlarni faqat imperator bekor qilishi mumkin edi.

1919-yilgacha mamlakatni boshqargan Koreya qiroli esa, amalda jismoniy shaxsga aylantirilib, barcha huquqiy maqomlar va vakolatlardan mahrum etildi. Barcha koreyslar Yaponiya imperiyasining fuqarolari deb e‘lon qilindi. Yapon tili rasmiy davlat tiliga aylantirildi, shuningdek, koreys tilida maktablarda ta‘lim berish, undan davlat tashkilotlarda, mahkama va sud ishlarida foydalanish qat‘iyan taqiqlandi. Koreya tarixi bo‘yicha yozilgan kitoblarni saqlash katta jarima yoki qamoq jazosi bilan jazolanadigan bo‘ldi. Koreyslarda nafaqat siyosiy tashkilotlar ishida, balkim, ilmiy, madaniy va sport to‘garaklarida ham qatnashish taqiqlangan edi. Koreyslar va yaponlar uchun har-xil qonunlar va tartiblar, turli sud va mahkamalar, do‘konlar, mehmonxonalar va transport vositalari mavjud bo‘lgan. Bir vaqtning zida yaponlar tomonidan harbiy-politsiya terror siyosati amalga oshirilib, milliy-vatanparvarlik harakatining har qanday ko‘rinishlari shafqatsizlik bilan bostirildi.

Shu bilan birga, yapon mustamlakachilari aholi o‘rtasida panosiyo g‘oyalarini faollik bilan yoyib, —sariq irql (Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari)qa mansub barcha xalqlarni birlashtirish zarurligini e‘lon qildilar. Natijada Yaponiya xayrixoh bo‘lgan koreyslarning ma‘muriy boshqaruvning quyi bo‘g‘inlarida ishlashiga ruxsat etiladi. Shuningdek, koreys jamiyatining yaponlar

bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘lgan qatlamlari uchun iqtisodiy richaglar ochila boshlanadi.¹¹

Shuni ta‘kidlash lozimki, koreyslarning hammasi o‘z vatanlarining mustamlakaga aylantirilishiga befarq qarab turmaganlar. Yaponiya tomonidan Koreyada joriy etilgan qonunlarni, o‘zlarining an‘anaviy yashash tarsi va madaniyati uchun haqarot deb, hisoblagan aholinin turli ijtimoiy qatlamlari

—ieyben! (—adolat otryadlar!) deb nomlagan partizanlar guruuhlarini tashkil eta boshlaydi. Mamlakatning turli viloyatlarida tashkil etilgan bu guruhlarga, turli ijtimoiy qatlamga mansub kishilar birlashgan edi. Koreya shimoliy qismida topgan partizan otryadlariga, bu vaqtga kelib juda ko‘plab koreys manzilgohlari joylashgan, Shimoli-Sharqiy Xitoy va Rossiya Uzoq Sharqidan moddiy va qurol- yarog‘ yordami ko‘rsatilgan.

¹¹ Новейшая история стран Азии и Африки XX век: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. В 2 ч./ Под.ред. А. М. Родригеса. – М.: 2001 г. – Ч. 1: 1900-1945. – С. 72.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bir-biridan alohida harakat qilgan bu otryadlarning har biri, yuzdan ortiq jangchilarni o‘zida birlashtirgan edi.

Koreys partizanlari yapon politsiya va jandarmi punktlariga, mustamlakachi amaldorlarga faol hujumlar uyuştirar, alohida aholi punktlarini egallab, u yerlardan yapon kelgindilarini haydab yuborar, yaponlar bilan hamkorlik qilayotgan mahalliy amaldorlardan qasos olishar va kommunikatsiya tarmoqlarini buzib tashlashar edi. Ayniqsa, Rossiyaning Yaponiya bilan urushda mag‘lubiyatga uchragan keyin, Koreyada partizanlar harakatining faollashganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki, rus-yapon urushidan keyin, Koreyada yaponlarni jilovlashi mumkin bo‘lgan tashqi to‘sqliarga butunlay barham berilgan bo‘lib, koreylarga nisbatan zulm siyosati yanada kuchaytiriladi. 1907-yilda yaponlar tomonidan Koreya qirolligining armiyasi tarqatib yuborilgach, partizanlarning saflari va harbiy harakatlarning maydoni yanada kengayadi. Qirol armiyasining vatanparvar sobiq zabit va askarlari partizanlar safini to‘ldirib, ularga urush olib borish taktikalarini ham o‘rgata boshlaysilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xan V.S. Koreya tarixi. - Toshkent: Baktria Press, 2013.
2. Ванин Ю. В. Аграрный строй феодальной Кореи XV-XVI вв. М., 1981.
3. Дон-но Ким, Джон Б. Данкан, До Хён Ким (2006), Реформа и современность в империи Тхэхан // Yonsei Korean Studies Series № 2.
4. Козлов Л. Е. Дипломатический статус королевства Чосон в условиях соперничества Китая, Японии и России на Корейском полуострове (Конец XIX в.) // Известия Иркутского государственного университета. Серия: Политология. Религиоведение. 2020. №. 34
5. Курбанов С. О. История Кореи: с древности до начала XXI в. Издательство Санкт Петербургского университета; 2009.
6. Новейшая история стран Азии и Африки XX век: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. В 2 ч./ Под.ред. А. М. Родригеса. – М.: 2001 г. – Ч. 1: 1900- 1945.